

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ISHANKULOV ALISHER FARMONOVICH

**NEFT KIMYOSI VA BIOTIBBIYOT UCHUN GIBRID KVANT
NUQTALARI ASOSIDA LYUMINESTSENT NANOMARKERLAR
SINTEZI HAMDA TADQIQI**

02.00.04 – Fizik kimyo

02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

UO‘K: 547.562.821:546.62.82:541.12.14.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract dissertation of doctor of science (DSc)

Ishankulov Alisher Farmonovich

Neft kimyosi va biotibbiyot uchun gibridd kvant nuqtalari asosida lyuminescent nanomarkerlar sintezi hamda tadqiqi 3

Ишанкулов Алишер Фармонович

Синтез и исследование флуоресцентных наномаркеров на основе гибридных квантовых точек для нефтехимии и биомедицины 29

Ishankulov Alisher Farmonovich

Synthesis and study of fluorescent nanomarkers based on hybrid quantum dots for petrochemicals and biomedicine 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ISHANKULOV ALISHER FARMONOVICH

**NEFT KIMYOSI VA BIOTIBBIYOT UCHUN GIBRID KVANT
NUQTALARI ASOSIDA LYUMINESTSENT NANOMARKERLAR
SINTEZI HAMDA TADQIQI**

02.00.04 – Fizik kimyo

02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/K175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.tersu.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Galyametdinov Yuriy Genadiyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Muhamadiyev Nurali Qurbonaliyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzimuradov Olim Narbekovich
kimyo fanlari doktori, professor

Akbarov Hamdam Ikramovich
kimyo fanlari doktori, professor

Ataxanov Abdumutalib Abdupattoyevich
kimyo fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil « 2 » oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17;. e-mail: termizdu@gmail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil) Tel.: (99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17;. e-mail: termizdu@gmail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 10 » IX kuni tarqatildi.
(2025 - yil « 10 » IX dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).



LA.Umbarov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

Sh.A.Kasimov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., prof.

G.J.Muqumova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilm-fan va nanotexnologiyalar rivoji davrida kvant nuqta (KN) larining fizik-kimyoviy xossalarni chuqur o'rganish va ularni amaliy sohalarida, xususan, neft kimyosi hamda biotibbiyotda qo'llash imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Kvant nuqtalarining o'lchamga bog'liq optik va lyuminescent xossalari, nanozarracha sirtini modifikatsiya qilish orqali selektivlik va biomoslashuvchanlikni ta'minlash imkoniyati ularni samarali nanomarkerlarga aylantirmoqda. Ayniqsa, gibrid va triplet kvant nuqtalari biotibbiyot sohasida nanomarkerlardan biologik to'qimalarni markerlash, onkologik kasalliklarni erta tashxislash hamda dorivor moddalarning yetkazilishini monitoring qilish muhim masalalardan biridir. Shu bilan birga, neft kimyosida ularning selektiv sorbent yoki datchik sifatidagi roli muhim bo'lib, kompozit materiallarning tarkibiy qismlarini aniqlash, reaksiya muhitidagi ionlarni kuzatish yoki neft mahsulotlari tarkibini tahlil qilishda signal kuchaytiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda neft sanoatida nanoo'lchamdagi sezgir datchiklar uchun sensorlar yaratish va biotibbiyotda dorivor moddalarni to'qimalarga manzilli yetkazilishini nazorat qilish uchun kvant nuqtalar olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kvant nuqtalarning noyob kvant-o'lcham effektlari, yuqori yorqinlikdagi lyuminescent xossalari va fotostabilligini aniqlash, ularning optik qurilmalar, biotibbiy diagnostika va atrof-muhit monitoringida qo'llanilish imkoniyatlarini baholash, ular yordamida biotibbiyotda aniq hujayralarni markerlash, nanoo'lchamdagi sezgir datchiklar uchun sensorlar yaratish va dorivor moddalarni to'qimalarga manzilli yetkazilishini nazorat qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, neft sanoati uchun mo'ljallangan tadqiqotlarda KNlar asosidagi sensorlar yordamida ionlar va organik komponentlarning sifat va miqdoriy aniqlanishi, katalitik jarayonlarni maqbullashtirish alohida ahamiyatga ega.

Respublikamizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan yangi turdagi kvant nuqtalari asosidagi sensorlar yordamida aralashmalarni aniqlash bo'yicha ma'lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga erishilgan, ayniqsa, yangicha yondashuvlarga asoslangan, gibrid kvant nuqtalari asosida yaratilgan lyuminescent nanomarkerlar olingan. Shu bois ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi"¹da iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida neft va biotibbiyot sohalarida kompleks foydalanish uchun gibrid va triplet kvant nuqtalari asosida yaratilgan lyuminescent nanomarkerlar olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

o'shish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-sonli "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qiymatli qo'shilgan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2022-yil 10-oktabrdagi "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF 60-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². So'nggi yillarda kvant nuqtalar asosidagi lyuminescent nanomateriallar olishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Lehigh University (AQSh), University of Houston (AQSh), Lappeenranta University of Technology (Finlyandiya), Xitoy fanlar akademiyasi (Xitoy) hamda Toyota Technological Institute (Yaponiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Mirzo Ulig'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetlarida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Kvant nuqtalar asosida yaratilgan gibril nanomateriallarning biomarker sifatidagi samaradorligi, ayniqsa, oqsil va DNK bilan o'zaro ta'siri, sirt modifikatsiyasi, kolloid barqarorligi va lyuminescent xossalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar davomida quyidagi bir qator natijalar olingan, jumladan, turli polimerlar asosida kvant nuqtalari sintez qilingan (Qozon milliy tadqiqotlar texnologiya universiteti, Rossiya), KNlarni nano-kapsula yoki ob'ekt shaklida foydalanish imkonini kengaytirilgan (Hebrew University of Jerusalem, University of Chicago, Cardiff University, Angliya), yadro/qobiq strukturali kvant nuqtalarining fluorestsentsiya so'nishi kinetikasi va termodinamik kattaliklari aniqlangan (Heidelberg University, Germaniya), kvant nuqtalarning oqsil va polielektrolitlar bilan o'zaro ta'siri spektroskopik va fizik-kimyoviy usullar yordamida asoslangan (Indian Institute of Technology Ropar, Hindiston).

Dunyoda polimerlar asosidagi KNlarni biomuhitda barqarorlashtirish, toksikligini kamaytirish va maqsadli manzilga yetkazish bo'yicha, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: turli polimerlar asosida kvant nuqtalar sintez qilish; KNlarni nano-kapsula yoki ob'ekt shaklida foydalanish

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha chet el ilmiy tadqiqotlari tavsifi: <https://doi.org/10.1039/D5NR00440C>;
<https://www.mdpi.com/1424-8247/15/7/880>;
<https://doi.org/10.1016/j.nxnano.2025.100172>;
<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B9780443155185000045>;
<https://doi.org/10.3390/ijms231810763> <https://doi.org/10.1016/b978-0-443-15518-5.00004-5> va boshqa havolalar.

imkonini kengaytirish; CdSe/ZnS va InP/ZnS kabi yadro/qobiq strukturali kvant nuqtalarining fluorestsentsiya soʻnishi kinetikasi va termodinamikasi (termodinamik funktsiyalar ΔG , ΔH , ΔS) boʻyicha tadqiqotlar olib borish; polimerlar asosida nanokompozitlar olish; tizimlarning spontan va elektrostatik bogʻlanishga asoslangan barqaror sistemalar hosil qilish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Bugungi kunda dunyoning koʻpgina mamlakatlarida yarim oʻtkazgichlar asosida nanotizimli materiallar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish boʻyicha ilmiy nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kvant nuqtalari boʻyicha ilmiy izlanishlar 1980-yillardan rivojlana boshlangan. Ilk marotaba kvant nuqtalar fiziklar tomonidan olingan boʻlib, ularning noyob optik xususiyatlari aniqlangan (Yekimov, Brus, 1981–1993). Hozirgi paytda kvant nuqtalar turli yoʻnalishlar boʻyicha keng qamrovli oʻrganib kelinmoqda. Biosensorli diagnostikada kvant nuqtalarining uzoq muddatli barqarorligi va yuqori kvant unumdorligi ularni biomarker sifatida ishlatish imkoniyatini ochdi. Murray, Norris va Bavendilar tomonidan kvant nuqtalarni olishning oddiy va juda samarali kimyoviy usuli taklif etilgan. Bu usul yuqori temperaturali kolloid sintez usuli nomini olgan. Bu borada Gak V. Y., Brichkin S. B., Razumov V. F., Chen O. Zhao, J., Chauhan, V.P., Cui, J., Wong, C., Harris, D.K Chausov D. N., Belyaev V.V., Ozchilik S.S., Galyametdinov Yu.G., Shamilov R.R. Nugaeva A.A. va boshqalarning xizmatlari salmoqli boʻlib, kvant nuqtalarning sintez qilish usullarini ishlab chiqish bilan bir qatorda yangi kompozit materiallarni ham yaratish, nanozarrachalarni boshqariladigan vositalar tizimiga kiritish orqali muhim uslubiy qoʻllanmalar ishlab chiqilgan.

Oʻzbekistonda ham mazkur yoʻnalish rivojiga O.N.Roʻzimurodov, H.I.Akbarov, A.A.Ataxanov, N.Kattayev, N.Q.Muxamadiyev, Q.F.Xalilov va boshqalar kvant nuqtalarning sintez usullarini oʻrganish, optik-oʻlcham parametrlarini boshqarish, turli qoʻshimchalardan tozalash kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlari bilan muayyan hissa qoʻshib kelmoqdalar.

Bugungi kunda monodispersli, yuqori lyuminesstent kvant unumli barqaror kvant nuqtalarni sintez qilishni takomillashtirish hamda yangi sintez usullarini izlab topish, nanozarrachalar sirt yuzasini modifikatsiyalash hamda kvant nuqtalarini oʻz ichiga olgan matritsalar (polimetilmetakrilat (PMMA)) asosidagi polimer nanokompozitlarni ishlab chiqarish kabi masalalar dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti va Rossiya Federatsiyasi Qozon milliy tadqiqotlar texnologiya universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ALM-202310062531 “Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari” (2023-2024-y.y.) va «Organik boʻyoqlar bilan modifikatsiyalangan galoid perovskit kvant nuqtalarining optik xususiyatlarini sintez qilish va tadqiq qilish» hamda 18-43-160009 “KNlar asosidagi smart materiallar sintezi” (2019-2021-y.y.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft kimyosi va biotibbiyot uchun gibrid kvant nuqtalari asosida lyuminescent nanomarkerlar sintezi hamda fizik-kimyoviy xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kolloid usulda “yadro/qobiq” va “yadro/qobiq/qobiq” tizimli kvant nuqtalarning bir bosqichli sintezining maqbul sharoitlarini aniqlash;

gibrid va triplet tuzilishli kvant nuqtalarning optik-o‘lcham xossalari, morfologiyasini tadqiq qilish;

sintez qilingan kvant nuqtalar klasterlarining reaksiya qobiliyati, ta’sirlashish energiyalari, elektron bulut tuzilishini kvant-kimyoviy zichlik funksional nazariyasi yordamida baholash;

kvant nuqtalarning fluorestsentsiya so‘nishi kinetikasi hamda termodinamik funksiyalarini (ΔG , ΔH , ΔS), ta’qiqlangan energetik hudud o‘lchamini hisoblash;

gidrofob kvant nuqtalarni turli tiol guruhli stabilizatorlar ishtirokida modifikatsiyalashni tadqiq etish;

tarkibida CdSe, CdSe/CdS, CdSe/ZnS, ZnSe/ZnS, CdSe/CdS/ZnS, CdSe/ZnS/ZnS, ZnSe/ZnS/ZnS kvant nuqtalar tutgan PMMA asosidagi polimer nanokompozitlarni olish;

neft oqimi yo‘nalishini monitoring qilishda ko‘p komponentli kvant nuqtalarning sezgirligini va selektivligini spektroskopik usullar yordamida tadqiq qilish;

“in vitro” biologik muhitda kvant nuqtalarining tarqalishini va ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda amaliyotda qo‘llash.

Tadqiqotning obyekti sifatida anorganik prekursorlar, organik erituvchilar, “yadro”, “yadro/qobiq” va “yadro/qobiq/qobiq” tizimli kvant nuqtalar, stabilizatorlar, PMMA, PVX, PFO polimerlar olingan.

Tadqiqotning predmetini neft kimyosi va biotibbiyot uchun gibrid kvant nuqtalari asosida lyuminescent nanomarkerlar sintez qilish jarayonlari, ularning fizik-kimyoviy va optik-o‘lcham xossalari tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida sintez qilingan turli tarkibli gibrid va triplet kvant nuqtalarining tuzilishi va tarkibini aniqlash uchun X-ray rentgen difraktometriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, transmission elektron mikroskopiya, atom kuchlanishli mikroskopiya hamda kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“yadro/qobiq” va “yadro/qobiq/qobiq” tuzilishga ega bo‘lgan kvant nuqtalarni olishning bir bosqichli usuli ishlab chiqilgan;

triplet ZnSe/ZnS/ZnS tuzilmalarning mono va gibrid tizimlarga nisbatan yuqori intensiv fotolyuminescentsiya xossasiga ega ekanligi isbotlangan;

kvant nuqtalarining morfologik va fizik-kimyoviy parametrlarini o‘zgartirish orqali ularning lyuminescent samaradorligi 17% dan 89% gacha ortishi aniqlangan;

ilk bor gibrid CdSe/ZnS, CdSe/CdS, ZnSe/ZnS, triplet CdSe/CdS/ZnS, CdSe/ZnS/ZnS, “ZnSe/ZnS/ZnS+stabilizator” tizimli kvant nuqtalar klasterlarining barqarorligi hamda optik-o‘lcham xossalari kvant-kimyoviy baholangan;

gibrid va triplet tizimli kvant nuqtalarini o'z ichiga olgan PMMA, PFO, PVX matritsali yupqa qatlamli nanokompozit materiallar olingan;

sintez qilingan gibrid va triplet kvant nuqtalari asosida dori tashuvchi nanotizimlar hamda neft oqimi yo'nalishini aniqlash uchun markerlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

CdSe, CdS, ZnSe, gibrid CdSe/ZnS, CdSe/CdS, ZnSe/ZnS, triplet CdSe/CdS/ZnS, CdSe/ZnS/ZnS, ZnSe/ZnS/ZnS kvant nuqtalarining bir bosqichli sintez uslubi ishlab chiqilgan;

gidrofob kolloid kvant nuqtali tizimlardan gidrofil tizimlarga (dodekantiolli, dodetsil lipoat kislota efirli, tsisteinli) o'tishda yutilish va fluorestsentsiya spektrlarini hamda fizik-kimyoviy xossalarni tahlil qilish orqali gibrid va triplet kvant nuqtalarini o'z ichiga olgan PMMA, PFO, PVX asosida yupqa qatlamli nanokompozit materiallar olingan;

olingan lyuminescent kvant nuqtalar organik moddalarni aniqlovchi nanomarkerlar sifatida va trasser texnologiyasida qo'llanilishi aniqlandi, yadro, gibrid va triplet kvant nuqtalarning optik-o'lcham xarakteristikalari xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi, xulosalar va tavsiyalarining asoslilik, olingan birikmalarni identifikatsiyalash yuqori darajada zamonaviy fizik va fizik-kimyoviy usullar (rentgen difraktometriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, transmission elektron mikroskopiya, atom kuchlanishli mikroskopiya hamda kvant-kimyoviy hisoblash usullari) yordamida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gibrid va triplet tizimli kvant nuqtalari sintezining maqbul sharoitlari, modifikatsiyalash, ularni kvant-kimyoviy nuqtai nazardan asoslash, shuningdek yadro sirt yuzasida qobiq o'stirish orqali barqarorligini oshirish, ularni biomolekulalar yoki neft uglevodorodlari oqimi bilan o'zaro ta'siri kabi jarayonlarni o'rganish esa real tizimlardagi jarayonlarni modellashtirish hamda ilmiy asosda bashorat qilish, optik-o'lcham xossalari bo'yicha ma'lumotlarni boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sintez qilingan turli tizimli kvant nuqtalar modifikatsiyalash bo'yicha uslubiyatning ishlab chiqilganligi, ularning amaliyotga tadbiq etilishi uchun asos yaratilganligi; hujayralar va to'qimalarni aniqlash, belgilash uchun kontrast modda sifatida, dori-darmonlarni maqsadli yetkazib berishda, biomolekulalar va zaharli birikmalarni aniqlash uchun biosensordlarda hamda lyuminescent markerlar sifatida qo'llanilganligi; neft mahsulotlari oqimini monitoring qilish, ularning yo'nalishini baholashda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Neft kimyosi va biotibbiyot uchun gibrid va triplet kvant nuqtalari sintezi asosida lyuminescent nanomarkerlar tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kolloid kvant nuqtalar olish usuli "BioXimMak" korxonasi amaliyotga joriy etilgan. ("BioXimMak" korxonasi (Rossiya) 2025 yil 25 maydagi 93/77-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada dori preparatlarining sifatini sezilarli darajada oshirishga va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga imkon yaratilgan;

“in vitro” biologik muhitdagi usuli “Xinjiang Shafiya Biotexnology Co. Ltd.” korxonasida amaliyotga joriy etilgan (Xinjiang Shafiya Biotexnology Co. Ltd, korxonasining (Xitoy) 2025 yil 15-martdagi ma'lumotnomasi). Natijada kvant nuqtalar antimikrob vosita sifatida qo'llanish imkoni yaratilgan;

kvant nuqtalarning kolloid sintez usuli «O'zbekneftgaz» AJ ga qarashli «Muborak gazni qayta ishlash zavodi»da amaliyotga joriy etilgan («Muborak gazni qayta ishlash zavodi» AJning 22.07.2025 yildagi 981/G'K-07-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada kondensat oqimi yo'nalishini nazorat qilish imkonini bergan;

tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar xorijdagi 5 ta impakt-faktori yuqori bo'lgan ilmiy manbalarda foydalanilgan (Journal results in optics, 2024, V.16. P.1-7, IF=4,2. Journal Analytica Chimica 2025, V.1345. P.11-27, IF=6,2., Journal Optik 2024, V.311. P.87-98, IF=4,8., Journal of Sol-Gel Science and Technology 2023, V.108. P.66-75, IF=3,2., Journal Analytical Methods-2025, P.1-23, IF=3,7., Journal biomaterials science 2025, V.10. P.1-36, IF=5,7). Natijada turli tarkibli kvant nuqtalar va polimerlar matritsasi asosida nanomarkerlar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 42 ta, jumladan 17 ta xalqaro va 25 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 54 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta foydali model patenti olingan, 1 ta monografiya chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, jumladan 7 ta Respublika va 9 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 180 betni tashkil etadi^{3*}.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirilishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhini qiyosiy tahlili keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar

^{3*} Muallif SamDU professori Q.F.Xalilovga ilmiy ish mavzusi bo'yicha adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish, ilmiy maqolalarni yozishda va mavzuni tanlash, tajribalarni o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishda ko'rsatgan xolisona rahbarliklari uchun minnatdorchilik bildiradi.

chiqarilgan hamda chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kvant nuqtalarning olinishi va sintezdan keyingi qayta ishlash usullari (Adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida KNlarning umumiy tasnifi va nazariy asoslari, sintez usullari, funktsionallashtirish usullari, yarimo'tkazgichli KNlarning optik xossalari o'lcham effekti, gibril "yadro/qobiq" va triplet "yadro/qobiq/qobiq" tizimli KNlar sintezi hamda optik-o'lcham xossalari, fluoretsent nanomarkerlarning olinishi va ularning xossalari, ko'p komponentli kvant nuqtalar asosidagi polimer nanokompozitlar, olingan nanomarkerlarning xarakteristikasi, neft-kimyoviy birikmalarni markerlash usullari, trasser texnologiyasida KNlarning ahamiyati, turli tarkibli KNlarining strukturaviy tizim va elektron xossalari kvant-kimyoviy baholash hamda ularni sun'iy intellektda qo'llash jarayonlariga bag'ishlangan xorijiy va Respublika nashrlarida keltirilgan ilmiy ishlar qiyosiy bayon etilgan. Nazariy va amaliy natijalarning tahlili asosida tadqiqotning maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obektlari, usullari va sintez jarayonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida asbob-uskunalar, yarimo'tkazgichli CdSe, CdS, ZnSe, ZnS yadroli KNlar sintez qilish usullari, "yadro/qobiq" tipidagi gibril CdSe/ZnS, CdSe/CdS, ZnSe/CdS, ZnSe/ZnSe, ZnSe/ZnS, triplet CdSe/CdS/ZnS, CdSe/ZnS/ZnS, ZnSe/ZnS/ZnS KNlar sintezi, gibril, triplet KNlarni modifikatsiyalash, olein kislotani tiol guruh saqlagan stabilizatorlarga almashtirish, trioktilfosfin stabilizatori bilan modifikatsiyalangan gibril CdSe/ZnS KNlar sintezi, turli tarkibli KNlarini o'z ichiga olgan PMMA, PFO, PVX asosida yupqa qatlamli nanokompozitlar olinish usullari, nanozarrachalarning kvant unumini hisoblash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Nanozarrachalarning hosil bo'lish termodinamikasi va o'sish kinetikasiga ta'sir etuvchi eng muhim reaksiyon parametrlardan biri bu haroratdir. Jarayonning umumiy faollanish energiyasi yadrolanish bosqichi, barqaror yadrolarni hosil bo'lish energiyasi uchun kerak bo'lgan alohida erkin energiya hissasini va yadrolanishda ishtirok etuvchi alohida atomlarning faollanish energiyasi fluktuatsiyasini hisobga oladi. Yangi faza hosil bo'lishining termodinamik nazariyasiga ko'ra, jarayonda sistema erkin energiyaning o'zgarishi ΔG quyidagi 1-tenglama bilan ifodalanadi.


$$\Delta G = 4\pi r^2 \gamma - \frac{4}{3} \pi r^3 \frac{\Delta \mu}{v_m} = 4\pi r^2 \gamma - \frac{4}{3} \pi r^3 \frac{RT \ln S}{v_m} \quad (1)$$

Natijada CdSe, CdS va ZnSe KNlarining yadrolanish erkin energiyasi mos ravishda $1.82 \cdot 10^{-17}$ J, $1.91 \cdot 10^{-17}$ J, $1.97 \cdot 10^{-17}$ J ga, tengligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“Kvant nuqtalar tuzilishini kvant-kimyoviy modellash”** deb nomlangan bo'lib, unda turli tizimli CdSe, CdS, ZnS, ZnSe, CdSe/ZnS, CdSe/CdS, ZnSe/ZnS, CdSe/CdS/ZnS, CdSe/ZnS/ZnS, ZnSe/ZnS/ZnS KNlar tuzilishining kvant-kimyoviy hisoblash ko'rsatkichlari, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.


Ma'lumki, hozirgi kunda kvant-kimyoviy hisoblash va molekulyar dinamika usullari molekulyar kristallar va oraliq (nano) o'lchamli murakkab sistemalarning

elektron, atom va molekulyar tuzilishlarini modellashtirishda keng qoʻllanilmoqda. Yadro, gibrid va triplet tuzilishli KNlarning fazoviy tuzilishini kvant-kimyoviy baholash maqsadida Gaussian 09 dasturiy paketi doirasidagi GaussView 5.0 dasturi yordamida kirish fayllari yaratildi. CdS, CdSe, ZnSe va ZnS asosida olingan KNlarining elektron bulut tuzilishini hisoblashlari turli kvant kimyoviy yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi. Molekulyar geometriyalarni optimallashtirish B3LYP/3-21G usuli asosida (Mallikken boʻyicha atom zaryadlar taqsimoti) aniqlash amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Olein kislota stabilizatori saqlagan CdSe va ZnSe KNlar klasterlarida zaryad taqsimoti koʻrsatgichlari.

HOMO va LUMO energetik sathlar Cd-Se tizimida atom orbitallaridan oʻtkazish zonasi (SV) va valent zonasi (VB) Cd va Se atomlaridan shakllangan turli stabilizatorli klasterlarning xossalari, elektron spektrlarini tahlil etish usulida oʻrganildi. Hisoblashlar natijalari nanozarrachalarning “elektron-tirqish” juftligi tizimida E_g HOMO va LUMO sathlari oʻrtasidagi energiya farqi taʼqiqlangan hudud qiymatiga mos keladi (2-rasm).



2-rasm. Turli stabilizatorli klasterlarning taʼqiqlangan energetik hudud kengligi (E_g)


KNlarning taʼqiqlangan energetik hudud kengligi koʻrsatgichlari 2-tenglamaga muvofiq aniqlandi. Hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

$$E_g^* = E_g + \frac{h^3 \pi^2}{2R^2} \left(\frac{1}{m_e^*} + \frac{1}{m_h^*} \right) - \frac{1.8 e^2}{4\pi \epsilon_0 \epsilon_r R} \quad (2)$$

KNlarning ta'qiqlangan energetik hudud kengligi ko'rsatgichlari

KNlar	E_g^* (eV)
CdSe	2,2
CdS	2,38
ZnSe	2,7
ZnS	3,6
ZnSe/ZnS	2,23
CdSe/ZnS	2,42

CdS uchun klasterlar sonining oshishi bilan ta'qiqlangan energetik hudud energiyasining (ΔE) kamayishi kuzatildi (HOMO-LUMO farqi, 3-rasm): $(CdS)_8$ uchun 2.994 eV; $(CdS)_{18}$ uchun 2.441 eV; $(CdS)_{22}$ uchun 1.55 eV, bu qiymatlarning o'zgarishi Cd atomlarining 3d va S atomlarining 2p orbitallari hisobiga vujudga kelishi aniqlandi.



3-rasm. CdS 8, 18 va 22 tali klasterlarning HOMO-LUMO qiymatlari.

Stabilizator molekullari bilan qoplangan $(CdSe)_{17}$ klasterlarining maqbullashtirilgan molekulyar geometriyasining ko'rsatilishicha Cd-Se bog'lari stabilizatorsiznikidan uncha farq qilmaydi. Organik molekulaning ishtiroki kimyoviy bog'ni uzaytirishga va elektron bulut zichligining Cd-Se bog'iga yaqin hudud tomonga siljishga olib keladi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

 $(CdSe)_{17}$ klasterining turli stabilizatorlardagi bog' uzunligi va elektron bulut zichligi ko'rsatgichlari

Stabilizator	Cd-Se bog' uzunligi Å	Elektron bulut zichligi
Olein kislota (OK)	2,698	1,1789
Dodekantiol (DDT)	2,702	1,0932
Dodetsildigidro lipoat kislota efiri (DL)	2,778	1,7265
Sistein (Ss)	2,633	0,94256
Merktopropion kislota (MPA)	2,675	1,0012

Turli tiol guruh saqlagan stabilizatorli ZnSe/ZnS KNlar uchun ham kvant - kimyoviy parametrlar hisoblandi. Stabilizatorli gibrid KNlarning kvant-kimyoviy parametrlari B3LYP/def2-TZVP usulida hisoblab chiqildi. Hisoblangan kvant-

kimyoviy parametrlar, ya'ni HOMO va LUMO energiyalari va ular asosida aniqlangan umumiy energiya (ΔE), elektronga moyillik (A), elektromanfiylik (χ), ionlanish potentsiali (I), kimyoviy potentsial (μ_p), ko'rsatgichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Turli tiol guruh saqlagan stabilizatorli KNlarning kvant-kimyoviy parametrlari

Kvant nuqtalar	E_{HOMO} , (eV)	E_{LUMO} , (eV)	ΔE , (eV)	I , (eV)	A , (eV)	χ , (eV)	μ_p , (eV)
ZnSe/ZnS DDT	-4,96	-1,71	3,25	4,96	1,71	3,33	-3,33
ZnSe/ZnS Ss	-4,35	-2,09	2,26	4,35	2,09	3,22	-3,22
ZnSe/ZnS MPA	-3,94	-1,76	2,18	3,94	1,76	2,85	-2,85

Olingan natijalar asosida «Chem Office» dasturidan foydalanib, ba'zi bir kvant kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi, xususan, dipol momenti (D), energiyaning o'rtacha kvadratik qiymati (E), boshlang'ich tebranish energiyasi (E_k) va shuningdek, ayrim termodinamik parametrlar: molyar hajm (V), issiqlik sig'imi (C_v), hamda termodinamik funktsiyalar, ya'ni ichki energiya (ΔU), entropiya (ΔS) o'zgarishi aniqlandi. Hisoblash natijalari 4 - va 5- jadvallarda keltirilgan.

4-jadval.

“Chem office” dasturi asosidagi turli tarkibli KNlarning kvant-kimyoviy hisoblash natijalari

Modda	D , (Debay)	E , (Kkal/mol)	E_k , (Kkal/mol)
CdSe/ZnS	8,115	12,233	617,3103
CdSe/CdS	7,923	12,027	603,7405
ZnSe/ZnS	7,17	11,856	598,6392
CdSe/CdS/ZnS	11,32	15,478	741,6548
CdSe/ZnS/ZnS	10,97	15,017	727,6589


5-jadval.

“Chem office” dasturi asosida turli tizimli KNlar uchun aniqlangan termodinamik ko'rsatgichlar

KNlar	V , (sm^3/mol)	C_v , (Kkal/mol.Kelvin)	ΔU , (Kkal/mol)	ΔS , (Kkal/mol.Kelvin)
CdSe/ZnS	4253,88	117,873	637,22	169,65
CdSe/CdS	4132,52	114,027	629,74	164,927
ZnSe/ZnS	4078,49	109,856	622,37	159,865
CdSe/CdS/ZnS	5369,74	129,478	745,69	229,741
CdSe/ZnS/ZnS	5285,33	127,414	729,55	228,658

Kvant-kimyoviy hisoblashlar qatorida ZnSe/ZnS KN lar va DDT molekullari o'rtasida o'zaro ta'sir kuchlar (bu vodorod bog'lari, Van der Vaals kuchlari yoki elektrostatik o'zaro ta'sirlar) mavjudligini baholash termodinamik funktsiyalar — entalpiya (ΔH) va entropiya o'zgarishi (ΔS) Vant Goff tenglamasi (3) asosida hisoblab chiqildi. Hisoblash natijalari qiymatlari Stern-Volmer (4a-rasm) va Vant-Goff (4b-rasm) bog'liqlik grafiklarida keltirilgan.

$$\ln K_{SV} = -\frac{\Delta H}{RT} + \frac{\Delta S}{R} \quad (3)$$



4-rasm. Turli haroratda ZnSe/ZnS KNIlar konsentratsiyasining DDT stabilizatori muhitida o‘zgarish grafiklari.

K_{SV} , ΔH va ΔS qiymatlari ushbu grafiklarning kesishish nuqtalari tangensi asosida hisoblab chiqilgan bo‘lib, ular 6-jadvalda keltirilgan. Gibbsning erkin energiya o‘zgarishi (ΔG) ham quyidagi 4-tenglamaga muvofiq hisoblab chiqilgan:

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S \quad (4)$$

6-jadval

ZnSe/ZnS (DDT) KNIlari tizimida Stern-Volmer assotsiatsiya doimiysi (K_{SV}) va termodinamik parametrlar nisbiy ko‘rsatkichlari

Sistema	ZnSe/ZnS		
T(K)	293	308	318
$K_{SV} (\cdot 10^9 \text{ l Mol}^{-1})$	0.0342	0.0459	0.0650
$\Delta H (\text{kJ Mol}^{-1})$	-19.52	-17.96	-15.44
$\Delta G (\text{kJ Mol}^{-1})$	-49.37	-46.89	-42.91
$\Delta S (\text{J Mol}^{-1}\text{K}^{-1})$	101.88	103.63	107.55


ΔG va ΔH ning manfiy, ΔS ning esa musbat qiymatga ega bo‘lishi merkaptopropion kislotasi bilan qoplangan “yadro-qobiq” tizimli KNIlarning DDT bilan bog‘lanish jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishini va bu bog‘lanish kovalent bo‘lmagan (Van der Waals) kuchlar orqali yuz berishini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlarda elektrostatik o‘zaro ta‘sir kuchlari va vodorod bog‘lanishlar ham muhim rol o‘ynashi mumkin.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi “**Kolloid kvant nuqtalarning optik-o‘lcham xossalari va modifikatsiyasi**” bobi olingan natijalar muhokamasiga bag‘ishlangan bo‘lib, KNIlarning yutilish va lyuminesentsiya, fluoretsentsiya spektrlari tahlili, optik-o‘lcham xarakteristikasi, “yadro/qobiq” tizimli gibrid KNIlarning optik-o‘lcham xossalari, modifikatsiyalangan gibrid hamda triplet tizimli “yadro/qobiq/qobiq” KNIlarning spektral o‘lcham parametrlari, trioktilfosfin stabilizatori bilan barqarorlashtirilgan gibrid CdSe/ZnS KNIlarning xossalari, nanozarrachaning o‘lchami va morfologiyasi hamda kinetik va termodinamik (umumiy sintez vaqti va haroratga bog‘liqligi) jarayonlari o‘rganilgan.

CdSe KNIlari sintezida olein kislotasi (OK) stabilizator sifatida qo‘llanilib, oktadetsen muhitida yuqori haroratda olib borildi. Olingan nanozarrachalarning lyuminesentsiya spektrida nisbiy intensivlik diapazoni 550-650 nm to‘lqin

uzunligiga mos keladi (5-rasm). Bu holat KNlar lyuminesentsiya spektrining intensivlik diapazoni simmetrikligidan hamda nanokristallar sirt yuzasida defektlarning juda kamligidan dalolat bermoqda. Ushbu tadqiqotlar gibrid “yadro/qobiq” tizimli CdSe/ZnS KNlari uchun ham bajarildi.

Ta’kidlash lozimki, yadro atrofida qobiqning o’stirilishi lyuminesentsiya intensivligini sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Shuningdek spektr maksimumini qisqa to’lqin uzunligi diapazoniga tomon siljiganligini kuzatish mumkin (5-rasm). Lyuminesentsiya spektri cho’qqisi 555 nm ga ko’chmoqda. CdSe va CdSe/ZnS KNlari yutilish spektrlarini qiyosiy taqqoslashdan yadro sirt yuzasida qobiq o’stirilgandan so’ng Bor eksitoni cho’qqisining qisqa hududga tomon siljiganini ko’rish mumkin (5-rasm).




5-rasm. CdSe (OK) va CdSe/ZnS (OK) KN lari yutilish va lyuminesentsiya spektrlari.

CdSe nanokristallari asosida ZnS qobig‘i bilan qoplangan gibrid KNlarini sintez qilishda SILAR (Successive Ionic Layer Adsorption and Reaction) usuli qo’llanildi. Sintez jarayonida oltingugurt (S) prekursorini qo’shish vaqti turlicha (3, 5, 7, 10, 13 va 15 daqiqa) qilib o’zgartirildi. Natijada hosil bo’lgan KNlarning lyuminesentsiya intensivligida sezilarli o’zgarishlar kuzatildi, bu esa qobiq shakllanishining optik xossalarga ta’sir qiluvchi muhim omil ekanligini ko’rsatdi (6-rasm). Spektrlardan ko’rinib turibdiki sintez jarayoniga oltingugurt prekursorlari qo’shilish vaqtining oshishi bilan lyuminesentsiya intensivlik cho’qqisining pasayishi kuzatilmoqda. Jarayonda eng maksimal intensiv cho’qqining hosil bo’lishi reaksiya muhitga har 3 minutda prekursor qo’shib, sintez olib borilganda ijobiy samara berganligi qayd etildi. Prekursorni qo’shish vaqtining o’zgartirilishi yutilish spektrlarining to’lqin uzunligi diapazonining o’zgarishiga olib kelmasligi (6b-rasm), ya’ni yadro sirt yuzasida qobiqning o’sishi uning yutilish to’lqin uzunligiga ta’sir qilmasligi aniqlandi.

Tadqiqotimizda olingan barcha nanozarrachalarning kvant unumi 5-tenglama orqali aniqlandi:


$$KU = KU_{rod} \cdot \frac{S_{KN}}{S_{rod}} \quad (5)$$

Natijalarga ko'ra, barcha turdagi KNLari yuqori monodisperslik darajasi, simmetrik spektral kenglik va nisbatan yuqori kvant unumligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ZnSe KNLari 43% ga teng kvant unumi va 27 nm spektral kenglik hamda eng samarali lyuminesstsent xususiyatlarga ega bo'ldi. ZnS KNLari ham yaxshi optik parametrlarni (lyuminesstsentiya cho'qqisi 582 nm, kvant unumi 40%) ko'rsatdi (7-jadval). CdS KNLari esa boshqa namunalar bilan solishtirilganda nisbatan past kvant unumiga (25%) ega bo'lsa-da, ularning spektral xossalari barqarorligi va nanozarracha o'lchamining bir xilligi saqlanib qolingan.



6-rasm. Gibril CdSe/ZnS KNLarining kinetik lyuminesstsentiya (a) va yutilish (b) spektrlari

CdSe/ZnS KNLari olein kislotasi bilan barqarorlashtirish jarayonida turli sintez vaqti uchun olingan nanozarrachalarning o'rtacha gidrodinamik o'lcham taqsimlanishi gistogramma ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan. Sintez vaqti 3 min.da CdSe/ZnS uchun o'rtacha gidrodinamik o'lchami 7 nm, 5 min.da 9,1 nm, 7 min.da 9,3 nm, 10 min.da 11,2 nm tengligi aniqlandi. Sintez vaqtining oshishi nanozarrachalarning o'rtacha gidrodinamik o'lchamini ham oshishiga olib keldi.



7-rasm. Sintez jarayoni turli vaqtida olingan CdSe/ZnS (OK) KN larning o'rtacha gidrodinamik o'lcham taqsimoti

KNlarining fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilash va ularning monodispers taqsimot barqarorligini oshirish maqsadida tiol guruh (-SH) saqllovchi dodekantiol (DDT) stabilizatorlar bilan modifikatsiyalash qo'llanildi. ZnS, ZnSe va CdS tarkibli kvant nuqtalari tiol guruhli stabilizatorlar ishtirokida sintez qilindi va ularning optik xossalari o'rganildi.

KNlar orasida CdSe (DDT) eng katta yutilish (574 nm) va lyuminesentsiya (590 nm) to'lqin uzunligiga ega bo'lib (7-jadval), bu uni kichik energiyali (qizil rangga yaqin) fotonlar bilan ishlovchi material sifatida ajratib turadi. Eng qisqa to'lqin uzunligiga esa ZnSe (DDT) ega (537;557 nm), bu esa ko'k-yashil spektr diapazoniga to'g'ri keladi. Spektral kenglik (FWHM) jihatidan CdSe va ZnSe KNlari eng tor (27 nm) qiymatga ega bo'lib, bu ularning monodispers ekanligiga va yoruqlik taqsimotining bir xilligiga ishora qiladi. CdS (31 nm) va ZnS (30 nm) esa biroz kengroq spektral kenglik ko'rsatadi, ya'ni nanozarrachalar o'lchami bo'yicha kattaroq dispersiya mavjudligini bildiradi.

Tadqiqotlarimizdagi KNlarning o'rtacha gidrodinamik o'lchami ularning yutilish spektridagi eksiton cho'qqisining holatiga qarab quyidagi 6-tenglama orqali aniqlandi. Hisoblash natijalari 7-8-9-jadvallarda keltirilgan.

$$D = (1.6122 \cdot 10^{-9}) \cdot \lambda^4 - (2.6575 \cdot 10^{-6}) \cdot \lambda^3 + (1.6242 \cdot 10^{-3}) \cdot \lambda^2 - 0.4277 \cdot \lambda + 41.57 \quad (6)$$

bunda D – nanozarracha diametri, λ – mos ravishda spektrlar maksimumlar to'lqin uzunligi.


7-jadval.

CdSe, ZnS, CdS va ZnSe KNlarining optik-o'lcham parametrlari

KNlar	$\lambda_{yut}(nm)$	$\lambda_{lyum}(nm)$	FWHM (nm)	Diametr (nm)	Kvant unum (%)
CdSe DDT	574	590	27	3.5	37
ZnSe DDT	537	557	27	3.4	43
CdS DDT	547	563	31	3.7	25
ZnS DDT	565	582	30	4.1	40


Tiol guruhli stabilizatorlar yordamida modifikatsiyalash KNlarining kolloid barqarorligini oshirib, ularning lyuminesentsiya samaradorligini saqlab qolishga va ba'zan yaxshilashga xizmat qildi.

8-rasmda merkaptopropion (MPA) va merkaptoyantar (MSA) kislotali CdSe/ZnS KNlarning dzeta potentsiallari keltirilgan, MPA yoki MSA bilan ligand almashinuvidan so'ng, hosil bo'lgan sistemalarning dzeta potentsiallari ko'rsatgichlari nisbatan chap tomonga siljib CdSe/ZnS-MPA uchun -34,6 mV (8a-rasm) va CdSe/ZnS-MSA uchun -27,0 mV (8b-rasm) qiymatlarga erishildi. Bu qiymatlar CdSe/ZnS ning tashqi sirt yuzalarida musbat ionli qatlamlar manfiy ionli qatlamlar bilan almashtirilganligini va ligand almashinuvi muvaffaqiyatli o'tganligini hamda hosil bo'lgan tizimlar juda barqarorligini tasdiqladi. KNlarning xuddi shu kontsentratsiyada pH ko'rsatkichlari uchun CdSe/ZnS-MSA ning mutlaq dzeta potentsiali qiymati CdSe/ZnS-MPA dan kichik bo'lganligi kuzatildi. Shunday qilib, CdSe/ZnS-MPA xloroform erituvchida yaxshi dispersiyalanishini namoyon etdi va ancha barqaror bo'lib bioamaliyotlar uchun ko'proq mos kelishi aniqlandi.



8-rasm. CdSe/ZnS-MPA (a) va CdSe/ZnS-MSA (b) uchun dzeta potentsial ko'rsatkichlari


Bir xil kontsentratsiyali, lekin turli pH ko'rsatkichlarida kvant nuqtali eritmalar 9-rasmda ko'rsatilganidek, turli dispersiyali taqsimot va barqarorlikni ko'rsatishdi. Muhit pH ning kichik qiymatlari karboksil guruhlarining protonlanishiga, kuchliroq o'zaro ta'sirlarning rivojlanishiga va KNlarining suvda yaxshi dispersiyalanishiga yordam beradi; nanozarralar o'rtasidagi o'zaro kuchli itarish kuchlari tufayli, KNlari juda yaxshi barqarorlikni ko'rsatishdi. Biroq, yuqori protonlanish jarayoni kvant nuqtalarining salbiy sirt himoyasiga olib kelishi mumkin. Ushbu natijalarga asoslanib, pH ning neytral qiymati (pH=7) kvant nuqtalarning dispersiyasi va barqarorligi uchun eng qulay muhit ekanligi aniqlandi.



9-rasm. CdSe/ZnS-MPA va CdSe/ZnS-MSA uchun dzeta potentsialning pH ko'rsatkichga bog'liqligi

Yutilish va lyuminestsentsiya samaradorligini oshiradi. ZnSe yadrosining fotolyuminestsentsiya cho'qqisi ZnSe KNlarda 538 nm, ZnS qobiq o'stirgandan so'ng gibril ZnSe/ZnS KNlarda 581 nm va triplet ZnSe/ZnS/ZnS KNlarda 588 nm ga siljiydi (SILAR sikllariga bog'liq). Spektlar nanozarracha monodispersligini va simmetrik shaklini ko'rsatadi. Qobiq o'stirilishi lyuminestsentsiya intensivligini oshiradi, biroq qobiq qalinlashganda (ikki SILAR tsikli) intensivlik kamayadi, bu holat sirt nuqsonlarining ko'payishi bilan izohlanadi.


ZnSe va ZnSe/ZnS ning optik xususiyatlari ultrabinafsha nurda ko'rinadigan (UB-Vis) yutilish (10a-rasm) va fotolyuminestsentsiya (10b-rasm) spektrlari olindi. ZnSe/ZnS yadro/qobiq tizimli KNlarning yutilish cho'qqisi ZnSe yadrosiga nisbatan uzoqroq to'lqin uzunliklari diapazoniga siljiydi, bu qobiq hosil bo'lganini va nanozarracha massasining oshganini ko'rsatadi. Bu holat ZnSe/ZnS strukturasi



10-rasm. ZnSe, ZnSe/ZnS va ZnSe/ZnS/ZnS KNIlarning yutilish (a) va lyuminesentsiya (b) spektrlari


ZnS qatlamining kristall tuzilishi va barqarorligini aniqlashda rentgen difraktometriya (XRD) usuli qoʻllanildi. Olingan natijalar 11a-rasmda keltirilgan. Rux-prekursorlari strukturasi ZnSe yadrosining uchta tipik choʻqqisi $25,49^\circ$, $43,05^\circ$ va $49,73^\circ$ da koʻrinadi va mos ravishda (111), (200) va (311) panjara yoʻnalishlariga toʻgʻri keladi (11a-rasm). Yadro ZnS qatlami bilan qoplangandan soʻng hamma asosiy choʻqqilar oʻng tomonga qarab siljiydi. Qobiqlar soni ortib borishi bilan asosiy choʻqqilar asta-sekin odatiy ZnS tizimi tuzilishi tomon siljiydi.

ZnSe/ZnS KNIlarining barqarorligi dzeta potensial orqali baholandi. 11b-rasmda koʻrsatilgandek, dzeta potensial qiymati ~ 40 mV boʻlib, bu sirtning musbat ionlar bilan qoplanganini va yaxshi barqarorlikka ega ekanini koʻrsatadi. TOP (trioktilfosfin) sirt faol modda sifatida ishlatilganda, KNIlar xloroformda yaxshi eriydi va nanozarrachalar oʻtasidagi statik itarish ancha kuchli boʻlishi aniqlandi.




11-rasm. ZnSe va ZnSe/ZnS, ZnSe/ZnS/ZnS KNIlarining rentgen difraksiyon (XRD) spektrlari (a) hamda ZnSe/ZnS kvant nuqtalarning dzeta potensial qiymati (b)

Trioktilfosfin stabilizatori MPA yoki MSA bilan almashtirilganda ZnSe/ZnS KNIlarining yutilish va fotolyuminesentsiya spektrlari maksimumi koʻk diapazonga siljiydi (12a,b-rasmlar). Bu siljish MPA va MSA molekularining TOP ga nisbatan kichikroq oʻlchamda boʻlishi bilan bogʻliq. Biroq, bu almashtirish lyuminesentsiya intensivligining sezilarli kamayishiga olib keladi.



12-rasm. ZnSe/ZnS MSA va ZnSe/ZnS MPA KNIlarning yutilish (a) hamda lyuminestsentsiya (b) spektrlari

ZnSe/ZnS-MPA va ZnSe/ZnS-MSA ning IQ-spektrlari (13-rasm) uchta asosiy maksimumga ega bo‘lib, TOP stabilizatori MPA yoki MSA bilan almashtirilganda $1700 \pm 10 \text{ cm}^{-1}$ da karboksil (-COOH) guruhining kuchli yutilishi kuzatiladi. Ligand almashinuvi ZnS yuzasidagi tiol (-SH) guruhlari orqali sodir bo‘ladi, bu 1289 cm^{-1} dagi -SH cho‘qqisining yo‘qolishi va $450\text{--}500 \text{ cm}^{-1}$ da S-S bog‘lanishining paydo bo‘lishi bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, 3303 cm^{-1} da -OH guruhining yutilish cho‘qqisi suvda yaxshi dispersiyalanishni ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar ZnSe/ZnS-MPA (yoki MSA) KNIlarini biosensordlarda bioagentlar qatorida ishlatish imkonini beradi.



13-rasm: KNIlarining MPA va MSA bilan funktsionallashtirilgandan oldin va keyingi IQ-spektrlari.


Sherrer yoki Vulf-Bregg tenglamalari (7-tenglama) yordamida hisoblangan kristall o‘lchami transmission elektron mikroskopi (TEM) natijalariga mos keladigan o‘rtacha zarracha o‘lchami 4,5-6,2 nm ekanligini ko‘rsatdi.

$$d = \frac{K\lambda}{\beta \cos\theta} ; d = \frac{n\lambda}{2\sin\theta} \quad (7)$$

Olingan nanozarrachalarning “yadro/qobiq” tuzilishli CdSe/CdS KNlar sirt yuzasida ZnS qatlamining o‘stirilishi sferik shaklning saqlanib qolingani va o‘lchamning o‘zgarmaganligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga nanozarrachalarning monodispersligi ham saqlanib qolinadi. Hisoblashlar natijasi CdSe/CdS KNlar o‘lchami 3.1 nm, CdSe/CdS/ZnS KNlar o‘rtacha o‘lchami 3,9 nm. ekanligini bildiradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, rux sulfidi, kadmiy selenid uchun eng yaxshi qobiq hisoblanadi. Biroq, olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki rux sulfidi faqat kadmiy selenidning kichik yadrolarida ($d(\text{CdSe}) < 2 \text{ nm}$) samarali o‘sadi. Shu bois tadqiqotlarimizda CdSe va ZnS yadrolari orasida kadmiy sulfidning oraliq qatlamini ham o‘stirish orqali ko‘p komponentli triplet KNlar olindi.

Lyuminescent gibril va triplet KNlarining optik-o‘lcham xossalari alohida tozalash va ajratish bosqichidan so‘ng o‘rganildi. Tadqiqotlarda Cd:Se va Zn:S ionlari nisbati mos ravishda 1:1 va 1:0,9 ni tashkil etdi. Cd:Zn ionlari nisbatini o‘zgartirish orqali muayyan o‘lchamli va spektrning turli sohalarida lyuminesentsiya beruvchi nanotizimlar olindi. Cd:Zn nisbati 1:13–1:10–1:8 oraliqda o‘zgartirilganda lyuminesentsiya piki (14a-rasm) mos ravishda 476–526–588 nm diapazonida siljiydi. Namunalarning yutilish spektrlari $< 350 \text{ nm}$ to‘lqin uzunliklarida kuchli yutilishni namoyon etadi, bu holat ZnS qobig‘ining sezilarli qalinligi bilan bog‘liq. Biroq, lyuminesentsiya spektrlari bu sohada emissiya chizig‘ini namoyon etmaydi. Turli tarkibli KNlarning yutilish spektrlari maksimumlarini turli to‘lqin uzunligi diapazonida chiqqanligini ko‘rish mumkin (14b-rasm). Yadro sirt yuzasida qobiqlar sonining ko‘payishi, nanozarrachalarning o‘lchami va lyuminesentsiya to‘lqin uzunliklarini o‘zgarishiga olib keldi.



14-rasm. KNlar namunalarning yutilish (a) va lyuminesentsiya (b) spektrlari

Turli tizimli KNlarining lyuminesentsiya (λ_{em}) va yutilish (λ_{abs}) spektrlari maksimumlari taqqoslangandan ko‘rinib turibdiki (8-jadval), tarkib murakkablashgan sari to‘lqin uzunligi diapazoni o‘lchami ortadi. Eng yuqori lyuminesentsiya va yutilish spektrlari cho‘qqilari ZnSe/ZnS/ZnS tizimida kuzatiladi. ZnS esa eng kichik qiymatlarni ko‘rsatmoqda, bu natija oddiy tarkibli KNlarning optik xossalari kuchsizroq ekanligini bildiradi.

8-jadval.

Turli tarkibli KNlarning parametr ko'rsatgichlari

No	Tizimli KNlar	λ_{em}	λ_{abs}	Yarim kenglik	D, nm	Stabilizator	Sintez harorati, °C	Sintez vaqti, min
1	ZnS	380	306	107	5,4	Oleilamin, dodekantiol	220	20
2	ZnSe	417	394	28	6	Oleilamin	270	20
3	CdSe/ZnS	464	450	20	8,3	Olein kislota	300	60
4	CdSe/CdS	476	460	41	7	Olein kislota, dodekantiol	305	20
5	ZnSe/CdS	526	507	44	7,5	Olein kislota, dodekantiol	305	20
6	ZnSe/ZnS	588	565	42	8,7	Olein kislota, dodekantiol	305	20
7	ZnSe/ZnSe	597	570	89	7,8	Oleilamin, dodekantiol	220	60
8	CdSe/CdS/ZnS	640	616	58	11,7	Olein kislota, dodekantiol	265	2
9	ZnSe/ZnS/ZnS	727	690	37	11,9	Olein kislota, dodekantiol	250	15

Jarayon natijasida, S atomlari tizim yadrosiga diffuziyalanib kiradi va CdS hosil bo'lishiga olib keladi, bu esa spektral to'lqin uzunligining ko'k diapazon tomonga siljishiga sabab bo'ladi. 8-jadvalda keltirilgan fotolyuminesstsiya spektrlari CdSe/ZnS/ZnS KNlarining fotolyuminesstsiya intensivligi CdSe/ZnS KNlarga nisbatan ikki barobardan ko'proq ekani va spektrning yarim maksimum kengligi 21 nm ekanligi aniqlandi. Shuningdek, nanokristallarning absolyut fotolyuminesstsiya kvant unumdorligi CdSe/ZnS uchun 44% dan CdSe/ZnS/ZnS uchun 88% gacha oshgani kuzatildi.

9-jadval.


